

Yadro tadqiqotlari birlashgan institutiga (Dubna) O'zbekistonning to'laqonli a'zoli tiklandi

2020-yil 23-noyabrda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti (YaTBI, Dubna, Rossiya) a'zo davlatlari Muxtor vakillar qo'mitasining yillik sessiyasi bo'lib o'tdi.

Ushbu yig'ilish kun tartibiga qo'yilgan masalalardan biri O'zbekiston Respublikasining Yadro tadqiqotlari birlashgan institutiga to'laqonli a'zoligini tiklash masalasi bo'lib, mazkur masala bo'yicha Qo'mita a'zolari tomonidan O'zbekiston Respublikasini Yadro tadqiqotlari birlashgan institutiga to'laqonli a'zoligini 2021-yil 1-yanvardan tiklash qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining YaTBIda to'laqonli a'zoli mahalliy mutaxassislarni yirik xalqaro loyihalarda ishtirok etishini hamda yadro texnologiyalari, yadroviy tibbiyot, axborot texnologiyalari va materialshunoslik yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi.




foto: jinr.ru

Ma'lumot o'rnida: hozirda Yadro tadqiqotlari birlashgan institutiga Ozarbayjon, Armaniston, Belorusiya, Bolgariya, Vetnam, Gruzija, Qozog'iston, KHDR, Kuba, Moldova, Mo'g'uliston, Polsha, Rossiya, Ruminiya, Slovakiya, O'zbekiston, Ukraina, Chexiya - 18 ta davlat ta'sischi-a'zo bo'lgan.

Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti - bu yirik xalqaro hukumatlararo tashkilot, dunyoga mashhur ilmiy markaz bo'lib, u eng yangi texnologiyalar rivojlantirish va qo'llash bilan fundamental va amaliy tadqiqotlarni muvaffaqiyatli birlashtirishning noyob namunasidir. Jahon ilmiy hamjamiyatida mazkur Institutning reytingda juda yuqori.